

QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
TAXIATOSH TUMANI  
HOKIMINING  
QARORI



QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
TAQIYATAS RAYONI  
HAKIMININ  
QARARI

2022 - yil 13 - yanvar

9-13-215-Q/22

Taxiatosh tumani hokimligi

**Qurilishi tugallangan “Yangi yil archasini” foydalanishga qabul qilish va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hisobiga o‘tkazib berish to‘g‘risida**

Taxiatosh tumani “Markaziy” MFY hududi Al-Forobiy va Sh.Rashidov ko‘chalari chorrahasidagi ochiq maydonga qurib bitkazilgan “Yangi yil archasi”ni foydalanishga qabul qilish bo‘yicha tuzilgan ishchi komissiyasining 2021-yil 30-dekabr kungi dalolatnomasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6-moddasini rahbarlikka olib

**QAROR QILAMAN:**

1. Taxiatosh tumani “Markaziy” MFY hududi Al-Forobiy va Sh.Rashidov ko‘chalari chorrahasidagi ochiq maydonga qurib bitkazilgan “Yangi yil archasi”ni foydalanishga qabul qilish bo‘yicha tuzilgan ishchi komissiyasining 2021-yil 30-dekabr kungi dalolatnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Taxiatosh tumani “Markaziy” MFY hududi Al-Forobiy va Sh.Rashidov ko‘chalari chorrahasidagi ochiq maydonga qurib bitkazilgan “Yangi yil archasi” foydalanishga qabul qilinsin va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hisobiga berilsin.

3. Taxiatosh tumani Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Matmurotov)ga “Yangi yil archasi”ni hisobida saqlash, ta’mir va har yilgi “Yangi yil” bayrami arafasida qurish hamda qayta yig‘ish ishlarini olib borish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Sabirov zimmasiga yuklatilsin.

Hokim v.v.b



A.Amanov